

ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLI SO`ZLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ravshanjonova Sitora Jahongir qizi

3-bosqich talabasi, CHDPU

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon svilizatsiyasi, ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo`shgan buyuk allomamiz Abu Rayhon Beruniyning hikmatli so`zlarining tarbiyaviy ahamiyati va ulardan adabiyot darslarida foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: adabiyot, Abu Rayhon Beruniy, hikmatli so`z, metod, tarbiya, vosita, ilm-fan.

Movarounnahr va Xorazm yurti IX-XI asrlarda o`z bag`rida ko`plab qomusiy olimlarni yetishtirdi. Shunday buyuk allomalardan biri xorazmlik Abu Rayhon Beruniydir. Beruniy yetuk astronom, geolog, farmolog, tarixchi, faylasuf, filolog va shoirdir. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, va geografiya sohasidagi ilg`or fikrlari bilan Kopernik, Leonardo da Vinchi va boshqa olimlarning kashfiyotlarini ko`p jihatdan oldindan payqagan edi. Olim falsafa, tarix va boshqa gumanitar fanlar sohasida zamonasining ilmiy saviyasidan ancha yuqori ko`tarila oldi. Beruniy 150 ga yaqin asar yozdi. Dariy, arab, sanskrit, grek va boshqa tillarni mukammal bilgan Beruniy bir qator asarlarni ham tarjima qildi. U arab tilida ko`pgina she`rlar bitdi, hajvchilikda mahorat qozondi hamda har xil qissalar va arab shoirlarining devonlariga sharhlar yozib, “Muxtor-ul ash’or” to`plamini ham tuzdi (3; 274-276).

Buyuk allomaning ilm-fan rivojiga qo`shgan hissasi nihoyatda ulkan bo`lib, ayniqsa, adabiyotga qo`shgan hissasi alohida e’tirof qilinmog`I lozim. Jumladan, olimdan bizga meros bo`lib qolgan she’rlar, hikoyatlar, hikmatli so`zlarning adabiyotdagi o`rni beqiyosdir. Biz fikr yuritayotgan mavzu Abu Rayhon Beruniy

hikmatlarining tarbiyaviy ahamiyati xususida bo`lib, ushu hikmatlardan adabiyot darslarida unumli foydalanish usullari haqida o`z fikr-mulohazalarimizni keltiramiz.

Olimning hikmatlaridan o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy dunyosini boyitishda foydalanar ekanmiz, ularning ma'no mundarijasi bilan yaqindan tanishish lozim. Beruniy hikmatlari maktab darsliklarida berilmagan bo'lsa-da, o'qituvchi o'zi mustaqil tarzda badiiy asar mazmuniga xos bo'lgan hikmatli so'zlardan foydalanishi mumkin. Masalan, "So'z bilan aytganda tushungan odamga qamchi va qilich lozim emas" (5; 87-89) hikmatli so'zidan Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror" asarlaridagi shu mavzuga oid maqolatlar o'tilganda foydalanish mumkin."Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir" hikmatli so'zidan Ezop masallari, Alisher Navoiy nasriy asarlaridagi maqolatlarni o'rganishda foydalanish mumkin.

Olimdan bizga meros bo'lib qolgan quyidagi hikmatli so'zlari ham o'quvchi yoshlarning ta'lif va tarbiyasida alohida ahamiyatga ega bo'la oladi.

Odamgarchiligi bor mard kishi o'zidan va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi.

* * *

Ne'matning qadri u yo'qolgandagina bilinadi.

* * *

Odamlarning tuban darajalisi ham o'zidan tubanroq bo'lgan birovga egalik va raislik qilishdan xoli emas.

* * *

Har bir yangi narsada lazzat bor.

* * *

Asalarilar ham o'z jinsidan bo'laturib ishlamay, uyadagi asalni bekorga yeb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydilar.

* * *

Minnat qilish berilgan ehsonni yo'qqa chiqaradi.

* * *

Ikkala da'vogar rozi bo'lishibdi-yu, qozi rozi bo'lmabdi.

* * *

Har bir kun uchun haq va haqiqat hozir narsa.

* * *

Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

* * *

Ulug' hodisalar har vaqt yuz beravermaydi.

* * *

Buzuq niyathi va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi.

* * *

O'z istagiga erishishga taqdir yordam bermagan kishiga malomat qilinmaydi.

* * *

Odamlar yoqtirgan kishilari tarafini olib, yomon ko'rgan kishilarini ta'na qilishadi.

* * *

Komil narsa ortiqchalikni ham, kamchilikni ham qabul etmaydi.

* * *

Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi.

* * *

Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzalroqdir.

* * *

Tillarning turlicha bo'lishiga sabab — odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida bir-biriga ehtiyoj tug'ilishidir.

* * *

Hayvonlarning tabiatlaridakushandalaridannafratlanish,
dushman dano'ziniqo'riqlashbor.

* * *

Hasad bilan g‘azab ikki qanot bo‘lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va kuduratli qilib yuboradi.

* * *

Haddan ortiq g‘azab vahshiylik keltiradi va bevaqt qilingan lutf obro‘ni ketkazadi (5; 87-89).

Yuqoridagi namunalardan ayimlariga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, “Yolg‘onchilikdan chetlanib, rostgo‘ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg‘onchining o‘zi ham sevib maqtaydi” hikmati tarbiyaviy jihatdan juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki unda har bir kishi rostgo‘ylikka intilishi asosiy g‘oya qilib berilgan. Olim rostg‘oylikni shu qadar oliy darajadagi fazilat ekanligini birgina hayotiy qiyoslash orqali yetkazib bergen. Ya’ni allomaning fikricha, agar kishi o‘zini yolg‘ondan tiyib rostgo‘ylikni odat qilsa, uni nafaqat rostgo‘ylikni seuvuchchi kishilar, balki o‘zi yolg‘onni odat qilgan kishilar ham rostgo‘ylikni yoqlab maqtashadi. Yana bir hikmatida esa “Ko‘z bilan ko‘rgan quloq bilan eshitgandan afzalroqdir” (4; 10) deb aytadi. Ya’ni insonlar qulog‘i bilan eshitgan har qanday gapga ham ishonib ketavermasligi lozim. Qachonki, eshitganlari chinligiga ko‘z bilan ko‘rib ishonch hosil qilmas ekanlar har qanday ma'lumot yoki voqeа ham haqiqat bo'lavermaydi. Ushbu ikki hikmat mazmun jihatidan go‘yoki bir-birini to‘ldirib, izohlab turgandek. Umuman olganda, allomaning har bir hikmatidan olam-olam ma‘no topishimiz mumkin. Hayotiy voqealarni qisqa va lo‘nda qilib bera olgan ushbu hikmatlar o‘quvchilar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Ar rayhan Muhammad ibn Ahmad al-Biruni (The MacTutor History of Mathematics archive)
2. Pirmat Shermuhamedov. “Dahoning tug‘ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati”. Toshkent.
3. Bosworth 1989, pp. 274-276.
4. Ahmed, Akbar S. (1984). “Al-Beruni: The First Anthropologist”. RAIN (60):9-10.
5. Abu Reyhan Biruni. Izbrannyye proizvedeniya, I. Tashkent. ANUzbSSR. 1957, s. 87-89.